

O'ZBEKISTON RESPUBLKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo'qon davlat universiteti
rektor D.Sh.Xodjayeva
5 11 2025-yil

13.00.07-TA'LIMDA MENEJMENT IXTISOSLIGI BO'YICHA
MUTAXASSISLIK FANIDAN DOKTORANTURA(DSc) VA TAYANCH
DOKTORANTURA (PhD)GA KIRISH IMTIXONI
DASTURI

Qo'qon – 2025

Ushbu dastur tegishli oliy o'quv yurtlari dasturlari va asosiy o'quv qo'llanmalari hajmida talabgorning muhim masalalar yuzasidan ushbu mutaxassislik bo'yicha maxsus qat'iy bilimga egaligini tavsiflash imkonini beradi.

Mazkur dastur 13.00.07–“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan kirish sinovlarini topshiruvchilarga mo'ljallangan.

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasining 2025 yil ___
dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tavsifiya etilgan (№ ___-son
bayoni)

Mazkur dastur Qo'qon davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2025
yil ___ - ___dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tavsifiya etilgan (№ ___ -
son bayonnoma)

Tuzuvchilar:  p.f.d., v.b. professor N.Erkaboyeva
 p.f.b.f.d. (PhD) Z.Xolmatova

Taqrizchi: dots. G .Radjabova

dots. U.Yuldoshev

KIRISH

Ushbu dastur 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura kiruvchi talabgorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari, Boshqaruv nazariyasi, Ta'lim menejmenti, Strategik menejment va innovatsion menejment fanlarining na'munaviy dasturlari asosida tuzilgan..

Dasturning maqsadi 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura kiruvchi talabgorlarni Boshqaruv nazariyasi, Ta'lim menejmenti, Strategik menejment va innovatsion menejment fanlariga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish va shu asosida sinovdan o'tkazish.

Dasturning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, uning o'ziga xos xususiyatlari, ular orasidagi bog'lanish, shaxsning turli faoliyat jarayonlarida o'zini namoyon qila olishi, shaxslararo munosabatlar jarayonidagi o'zini-o'z tarbiyalash masalalarini talabgorlar ongiga singdirishdan iborat

13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura kiruvchi talabgorlarning bilimlariga qo'yiladigan talablar:

– O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda ta'limning uzviyligi va uzluksizligini bilishi;

– Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlarini bilishi;

– Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga izoh bera olishi;

– Boshqaruv metodlari. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi va o'rganishi;

– Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

– Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari, boshqarish omillari va boshqarish qoidalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi hamda ularni o'rganishi;

– Ta'lim menejmenti fanining predmeti, maqsad va vazifalarini bilishi;

– Ta'limni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublari o'rganishi;

– Ta'limning xalqaro standartlashtirish tizimlarini bilishi;

– Ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish haqida tasavvurga ega bo'lishi;

– Boshqaruv“(Menejment)” tushunchasining mohiyatini bilishi;

– Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi ekanligini bilishi;

– Ta'lim jarayonini boshqarish muammolarini o'rganishi;

- Ta'lim muassasalari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan talablarni va ularning funksional vazifalarini o'rganishi va bilishi;
- Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari va rahbar kompetentligi komponentlarini bilishi;
- boshqaruv tizimlari holati va potentsialini o'rganish hamda strategik va operativ tahlilning kompleks metodlaridan foydalanishni bilishi;
- menejmentning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali boshqaruv jarayonini tadqiq etish, loyihalash, tashkil etish va baholashni bilishi;
- Strategik va taktik boshqaruvga baho bera olishi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarini, ta'lim sohasidagi mas'ul idora tashkilotlarning ta'lim sohasidagi vakolatlarini hamda ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning asosiy funksiyalarini bilishi kerak

DASTUR MAZMUNI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida ta'lim tizimi isloh qilish yo'llari.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mazmuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga kompleks yondashuv g'oyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, ularda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid masalalar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'lim sohasini isloh qilishga doir qarorlari mazmuni va ularning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati.
7. Boshqaruv (menejment) tushunchasining mohiyati
8. Menejmentning fan sifatida rivojlanishini
9. Menejment fani predmeti. Ta'limni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublari.
10. «Ilmiy menejment» maktabi va F.Teylor ta'limoti

11. «Ilmiy menejment» maktabining namoyandasi G.Emersonning asosiy prinsiplari
12. Boshqaruvda motivatsiya va rag'batning o'rni
13. Boshqaruvga doir zamonaviy yondashuvlar
14. Boshqaruv usullari to'g'risida tushuncha. Boshqarishning tashkiliy ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik usullari.
15. Boshqaruv metodlari.
16. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar.
17. Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish, optimal qaror tushunchasi
18. Boshqaruv qarorlarining turlari.
19. Boshqaruvda nazorat tushunchasi, nazoratning mazmuni, mohiyati va turlari.
20. Boshqaruv madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari
21. Boshqaruvning asosiy funksiyalari
22. Ta'lim menejmentining umumiy tamoyillari
23. Ta'lim menejmentining asosiy funksiyalari. A.Fayol nazariyasi
24. Boshqaruvda «liderlik» tushunchasi
25. Boshqaruv jarayonida ta'lim muassasasi va jamoatchilikning hamkorligi
26. Ta'lim menejmentining o'ziga xos xususiyati
27. Zamonaviy boshqaruv modellari
28. Boshqaruvda tizimli yondashuv
29. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uni boshqarish.
30. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari sohasi, ta'lim xizmatlarini tashkil etish yo'nalishlari va turlari
31. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari
32. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli
33. Ta'lim tizimini boshqarish omillari. Ta'lim tizimini nazorat qilish, hisob-kitob qilish.
34. Ta'limga oid me'yoriy – huquqiy xujjatlar.
35. Ta'lim muassasasi pedagogik tizim sifatida
36. Ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish
37. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari
38. Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari. Boshqarish omillari. Boshqarish qoidalari
39. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar
40. Ta'lim muassasasidagi metodik ishlarni tashkil etish va boshqarish.

41. Ta'lim muassasalarini boshqarishda xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari
42. Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi
43. Ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.
44. Ta'lim muassasalari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari. Rahbar kompetentligi komponentlari
45. Rahbarlik uslublari.
46. Menejer shaxsi tipologiyasi
47. Personalni boshqarish uslublari
48. Ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishni tashkil etish va boshqarish
49. Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.
50. Pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini boshqarish
51. Oliy ta'lim menejmentining maqsadi va vazifalari
52. Ta'lim xizmatlari marketing turlari, strategiyasi, uning bosqichlari
53. Ta'lim muassasasini strategik boshqarishda missiyaning roli va o'rni
54. Strategik rejalashtirish va boshqarish
55. Zamonaviy jamiyatda pedagoglik kasbi va unga qo'yiladigan talablar
56. Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi
57. Strategik rejalashtirish va uning bosqichlari.
58. Strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirish
59. Strategiyani yaratish va qayta ishlashda menejmentning vazifasi
60. Innovatsiya ta'lim muassasasi menejmenti samaradorligining muhim sharti
61. Innovatsiyalar tasnifi va turlar
62. Innovatsion va strategik menejmentning mazmuni
63. Innovatsion faoliyatning asosiy bosqichlari
64. Ta'limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish
65. Ta'lim sifati va uni baholash texnologiyalari
66. Ta'lim sifatini boshqarish
67. Ta'limda strategik menejment: uni amalga oshirishning usul va shakllari
68. Ta'lim sifati va uni baholashning xalqaro mezonlari
69. SWOT, PEST, STEP - tahlil usullari, ularning xususiyatlari va amaliy ahamiyati
70. O'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dasturlar. Ularning mazmuni va ta'lim jarayonidagi ahamiyati

13.00.07–“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo’yicha TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI BO’YICHA FANLARDAN KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONI

Tayanch doktoranturaga kirish sinovlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son Qarori bilan tasdiqlangan (2-ilova) «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq tashkil qilinadi. Kirish sinovlari ishlarini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Kirish sinovida 90-100 ball (jami ballning 90-100%) fanni mukammal o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga tayanch so'z va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yoritilgan talabgorlarga qo'yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko'nikmalari va qo'shimcha manbalardan foydalanish qobiliyati ham hisobga olinadi.

Kirish sinovi 70-89 ball (jami ballning 70-89%) fanni o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga tayanch so'z va iboralardan foydalanib javob bergan, lekin faqat savolning o'zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

Kirish sinovidan 60-69 ball (jami ballning 60-69%) fanni qisman o'zlashtirgan, qo'yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

Kirish sinovida 55% dan kam ball savollarni yoritishda tayanch so'z va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarni to'liq yoritilgan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo'yiladi.

13.00.07–“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo’yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni qabul qilish og’zaki suhbat imtihonlari asosida o’tkaziladi.

BAHOLASH MEZONI

13.00.07–“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo’yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni kirish sinovi mavjud o’quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Talabgorning javoblari "0" ballidan "100" ballgacha baholanadi.

Har bir variantda 4 ta savol mavjud bo'lib, har bir savol uchun maksimal **25 ball**dan belgilangan.

Variantdagi **savollarga** berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 20 – 25 balgacha qo'yiladi.
2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 14 – 19 balgacha qo'yiladi.
3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 10-14 balgacha qo'yiladi.
4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-10 balgacha qo'yiladi.

Nº	Umumiy ball	Baho	Tayanch doktaranturaga kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1	20-25	A'lo	Berilgan savollar mazmuni aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	24-25
2	14-19	Yaxshi	Javoblarda tayanch doktaranturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	22-23
3	8-13	Qoniqarli	Savollarda javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun natijalar yuzaki yoritilgan;	20-21
			Javoblar to'g'ri yozilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar, chalkashliklarga yo'l qo'yilgan; Javoblarda tayanch doktaranturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;	18-19
			Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	16-17
			Savollarda javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun natijalar yuzaki yoritilgan;	14-15
				12-13

		Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan;	10-11
		Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega, biroq tahlil yetarli emas.	8-9
4	0-7	Qoniqarsiz	4-7
		Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas, adabiyotdan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan;	
		Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan;	0-3
		Umuman javob yozilmagan.	

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent O'zbekiston, 2011 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent O'zbekiston, 2020 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 07.02.2017 yil. // №PF-4947-sonli Farmoni.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet.
8. Bekmurodov A.SH., Qosimova M.S., Ergashxojayeva SH.J. – Strategik marketingl. O'quv qo'llanma. – T.: – Iqtisod – Moliya, 2010.
9. Qosimova D.S. – Menejment nazariyasi. O'quv-ustubiy majmua. – T.: – TDIU, 2011-y. 14–15 bet.
10. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment. – T.; – O'qituvchi, 2001-y. 48-bet
11. Saidova.X Menejment tarixi. Toshkent. Ilm fan 2023.

12. Djurayev R.X., Turg'unov S. T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. Toshkent: Fan, 2006.
13. Djurayev R.X., Turg'unov S. T. Ta'lim menejmenti. T.: 2006 y.
14. Mahkamova, S.Yo'ldasheva, Sh.Xolmatova, O.Shmigun "Boshqaruv" Toshkent-2017.
15. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti. –Toshkent, 2006. – 73b.
16. Yuldoshev N.K, Nabokov V.I. "Menejment nazariyasi". Darslik. – T. TDIU, 2013.
17. Lazarev V.S., Potashnik M. M. Upravleniye razvitiyem shkoly. M., 1995. 441s.
18. Lazarev V. S. Sistemnoye razvitiye shkoly. M., 2002.
19. Mirqosimov M. UO'TMni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
20. Turg'unov S.T. Zamonaviy UO'TM rahbarlarining funksional vazifalari. Namangan: NVPQTMOI, 2004.
21. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining malakasini oshirish kursi tinglovchilari uchun ta'lim boshqaruvi (menejment)dan o'quv dasturi. Toshkent: O'PFITI, 2005.
22. Turg'unov S.T., Uluqov N.M., Shodmanov Q.O., Maqsudova L.A. Ta'lim muassasalarida boshqaruv. Qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2008.
23. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umaraliyeva M.A., Tojiboyeva X.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Qo'llanma. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
24. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umaraliyeva M.A., Tojiboyeva X.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Qo'llanma. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
25. Turg'unov S.T., Axmedova N.Q., Shodmanov Q.O. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Qo'llanma. – Namangan: "Namangan", 2012.
26. Turg'unov S.T., Ahmedov F.X., Shodmanov Q.O., Ahmedova N.Q., Otajonova D.M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. Qo'llanma. – Namangan: "Namangan", 2012.
27. To'ychiyeva.M "Boshqaruv pedagogikasi va etikasi" Andijon 2012. 5-b